

ISAJON SULTONNING “MA’SUMA” ROMANIDA TARIXIY SHAXSLARNING

BADIY TALQINI

Xurshida Ro‘ziyeva

TerDU o‘zbek adabiyotshunosligi yo‘nalishi 2-bosqich magistri.

email: xurshidaruziyeva02@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14674629>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Isajon Sultonning “Ma’suma” romani uning baddiy xususiyatlari bayon etilgan holda asarda tarixiy shaxslarning badiiy talqinlari tahlilga tortilgan. Asarda ifodalangan jadid namoyondalari ularning hayot yo‘li va taqdirlariga oid holatlar badiiy ifodalar asosida ochib berilgan. Maqola ham aynan ushbu xususiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Isajon Sultan, badiiy obraz, jadidchilik, qo‘rboshilik harakati, qatag‘on siyosati.

ARTISTIC INTERPRETATION OF HISTORICAL PERSONS IN THE NOVEL

“MA’SUMA” BY ISAJAN SULTAN

Abstract. This article analyzes the novel “Ma’suma” by Isajon Sultan. Several recent manifestations are reported.

Key words: theater, drama struggle, martial movement, repression policy.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ЛИЧНОСТЕЙ В РОМАНЕ ИСАДЖОНА СУЛТАНА «МАСУМА»

Аннотация. В статье анализируются художественные интерпретации исторических персонажей в романе Исаиона Султана «Масума», описываются его художественные особенности. Современные личности, представленные в произведении, их жизненные пути и судьбы раскрываются посредством художественного выражения. В статье также освещаются эти особенности.

Ключевые слова: Исаион Султан, художественный образ, джадидизм, движение Корбос, политика репрессий.

Milliy qadriyatlar hamda an’analarning, millat fidoyilarining yorqin hayot yo‘lini ko‘rsatib berish badiiy adabiyotning asosiy obyektlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu jarayonni mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida ham kuzatishimiz mumkin. Tarixiy shaxslarning badiiy obrazlarini, talqinlarini o‘quvchiga yetkazishda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning xizmatlarini alohida qayd etish o‘rinlidir. Adibning “Alisher Navoiy”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Bilga xoqon” kabi va

boshqa bir qancha asarlarida tarixiy shaxslarning yangicha badiiy talqinlarda ifodalangan hayot yo‘lini kuzatishimiz mumkin.

Isajon Sultonning XX asrning boshlaridagi ziyoli oilaning taqdiri aks etgan “Ma’suma” romanida ham bevosita tarixiy shaxslarning zamon va makondagi hayoti tasvirlab beriladi. Asarda xalqimiz boshidan o‘tgan og‘ir kunlar, xususan, qatag‘on siyosati aks ettirilgan. Asarda tasvirlangan barcha qahramonlar, ularning taqdirlaridagi voqealar real hayotda yuz bergen. Bu haqida "Mas’uma" romaniga so‘zboshi yozgan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid ham ta’kidlaydi: [**"Romanda tasvirlangan voqealar hayotda sodir bo‘lgan, badiiy bo‘yoq berilgan haqqoni yozgan. Mamlakatimiz tarixining jadidlar davri qanday murakkab bo‘lganini bir oila misolida ko‘rish mumkin. Chunonchi, Abduvohid qori- mashhur ulamo, "Sho’royi islomiya" va "Mahkamai islomiya" jamiyatlari raisi, bosqinchilar Ufaga olib ketgan muqaddas osori atiqa – Usmon Qur’onini yurtimizga qaytarib olib kelishda jonbozlik ko‘rsatgan arbob, ya’ni jadidlik davrining "qadimchi" laridan. Uning to’ng’ich o‘g’li Bosit Qoriyev-Madaniyat vazirligi, san’at boshqarmasi boshlig‘i, o’rtancha o‘g’li Bois Qoriyev, ya’ni Oltoy-“yangilikchi”shoir, Maorif vazirligining mas’ul xodimi"**]1

Ma’suma romanida XX asrning eng ziyoli oilalaridan biri bo‘lgan Abduvohid Qoriyevning oilasi va uning ayanchli taqdiri haqida so‘z borgan. Asarda nafaqat Abduvohid qori va Ma’suma Qoriyeva xonadoni misoldagi miskinlik va mudhish ko‘ngilsizliklar, balki xalqimizning sara ziylilari — Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Tavallo, Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Cho‘lpon, Botu kabi ziylilarning nomlari keltirib o‘tiladi. Barchamizga ma’lumki, tarixiy asar yozish ijodkordan ancha katta izlanishni talab qiladi. Muallif biror bir ijod namunasi yozish jarayonida tarixiy voqealarni ipidan ignasigacha, sinchiklab o‘rganilishi lozim. Isajon Sulton bu borada ancha iste’dodli hisoblanadi. Yozuvchining qaysi bir tarixiy asarini olmaylik undagi voqealarning barchasi aniq qilib yozilganining guvohi bo‘lamiz. Biz tahvilga olgan “Ma’suma” romanida ham ko‘pchilik nomlarini eshitmagan bir qator jadid namoyondalarining ismlari ham tilga olingan: “... Mol-u jonini millatga fido qilgan merganchalik Ubaydulla Xo‘jani va Basharilla Asadillaxo‘jani, Toshpo‘lat Norbo‘tabekni, shayxantaxurlik Munavvar Qori Afandini...zanjirlikdan Muhammadjon Poshshaxo‘ja o‘g‘lini, qoryog‘didan Kattaxo‘ja Boboxo‘jani, orqa ko‘chadan Nizomiddin Asomiddinxo‘jalarni duo qilaman”.

Asar qiymatini oshiruvchi jihatlaridan biri bu albatta yozuvchining milliy istiqlolchilik harakati a’zolariga to‘xtalganidir.

Sovet bosqiniga qarshi kurashgan tarixda qo‘rboshilik harakati deb nom olgan, bosqinchilar tomonidan esa “bosmachi” deb atalgan yurt ozodligi uchun jon bergan yovqur bobolarimiz: Shermuhammadbek, Madaminbek, Xolxoja eshon, Ibrohimbek laqay hamda tarixiy asarlarda deyarli uchramaydigan ayol qo‘rboshilar Nodira qiz, Shakarxon kabi zulmga qarshi kurashgan tarixiy shaxslar kiritilishi o‘zbek adabiyotida kamdan kam uchraydigan holat desa ham bo‘ladi. Asardagi asosiy voqealar o‘zbek teatrining paydo bo‘lishi rivojlanishi haqidadir. O‘zbek teatrining asoschisi Abror Hidoyatov va shu taetrga umrini baxshida etgan Yetim Bobojov, Aziz Sobirov kabi aktyorlar tilga olinadi. Yuqorida aytiganidek, asar bosh qahramoni birinchi o‘zbek aktrisasi Ma’suma Qoriyevadir. U birinchi marotaba G‘.Zafariyning “Xalima” spektaklida rol ijro etgan. Rol o‘ynayotgan aktyorlar bevosita omma bilan gapalshib rol ijro etgan. Maqsad xalqni fikrini bilish, xulosa chiqarish qaysidir ma’noda “oyna” qilib ko‘rsatish bo‘lgan. Sovet tuzumining qatag‘on siyosati tufayli bir qancha ziyolilarmiz qamaldi. Bu siyosat Qoriyevlar xonadonini ham chetlab o‘tmadi. Oila a’zolari “xalq dushmani” deb e’lon qilingandan keyin, Ma’suma Qoriyevaning teatrtdagi faoliyatida ham bir qancha to‘silalar paydo bo‘ladi. Aktrisalikdan xo‘jalik ishlariga tushiriladi. Bu siyosat tufayli teatrda qo‘yiladigan bir qancha asarlar olib tashlanadi, ba’zilarining nomi o‘zgartiriladi. Ma’sumaning oila a’zolari “xalq dushmani” sifatida ayblanib qamalganidan so‘ng uning ikkita o‘g‘li oilasi nomini oqlash uchun urushga ketadi va qaytib kelmaydi. Asar so‘ngida ikki farzandidan judo bo‘lgan onaning o‘kinch bilan aytgan “Mana bolalarim, nomimiz ham oqlandi” degan jumlalari juda ta’sirli tarzda asarda aks ettirilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, asarda tarixiy shaxslar keltirilishi bilan bir qatorda, davrning tarixiy taraqqiyot jarayonlari hisoblangan teatrning shakllanishi, rivojlanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, qatag‘on siyosati, uning insonlar hayotiga ko‘rsatgan ta’siri Qoriyevlar oilasi misolida, ularning ayanchli taqdiri yorqin ochib berilgan. Asarda ifodalangan shaxslar taqdiri hamda faoliyatidan o‘quvchi o‘zi uchun muhim bo‘lgan xulosalarni chiqaradi. Asar o‘zbek adabiyotining eng sara asarlaridan biriga aylanishining boisi ham ana shundadir.

REFERENCES

1. Isajon Sulton “Ma’suma”. –Toshkent; 2022
2. Sayyora Raimova Isajon Sultonning "Ma'suma" romanida intertekstuallik nomli maqola
3. ziyo.uz com
4. Jo‘raqulov Sardor "Ma'suma" romani haqida nomli maqola